

**Oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish to`g'risida**  
**Shartnoma № 02**

Muborak tuman

«26» yanvar 2022 yil

Ushbu shartnomaga asosan bir tomondan «**SALMAN PRODUKT TA'MINOT**»MCHJ rahbari A.Raxmonov timsolida (keyingi o'rirlarda «Mahsulot yetkazib beruvchi») hamda ikkinchi tomonidan Muborak tuman Maktabgacha ta'lif bo'limi rahbari SH.Ataeva timsolida (keyingi o'rirlarda «Sotib oluvchi») o'rtasida tuzilgan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

**1.SHARTNOMA PREDMETI**

1.1 Mahsulot yetkazib beruvchi o'zi yetishtirgan yoxud sotib oladigan mahsulotini Sotib oluvchiga ushbu shartnomada ko'rsatilgan muddatda o'z vaqtida yetkazib berishni, Sotib oluvchi esa mahsulotni qabul qilishni va haqini o'z vaqtida to`lash majburiyatini oladi.

№	Mahsulot nomi	O`lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
1	Piyoz	Kg	480	1 500	720 000
2	Sabzi	Kg	633	2 500	1 582 500
3	Oshkovok	Kg	496	3 000	1 488 000
4	Karam	Kg	321	5 000	1 605 000
5	Kartoshka	Kg	1733	4 600	7 971 800
6	Tuxum 1-toifali (D-1)	Dona	3511	8 00	2 808 800
7	Limon	Kg	33	17 000	561 000
8	Lavlagi	Kg	252	3 000	756 000
9	Olma	Kg	372	14 000	5 208 000
10	Bordring	Kg	131	15 000	1 965 000
11	Oq loviya	Kg	5	12 000	60 000
12	Mosh	Kg	12	12 500	150 000
	Жами:	X	x	X	24 876 100

**2.YETKAZIB BERISH SHARTLARI**

2.1 Mahsulot yetkazib beruvchi buyurtma tushganidan so`ng 3 kun ichida buyurtmada ko'rsatilgan miqdorda sotib oluvchiga mahsulotni yetkazib beradi.

2.2 Mahsulot yetkazib beruvchi mahsulotni avtomobil transportida sotib oluvchining omboriga yetkazib beradi.

2.3 Mahsulot yetkazib berish vaqtı mahsulot omborxonaga yetkazib berilgan vaqt hisoblanadi.

2.4 Mahsulotga egalik xuquqi Sotib oluvchiga mahsulot omborxonaga yetkazib berilgan vaqt dan hisoblanadi.

2.5 Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan mol mulk tovar (mahsulot)lar yetkazib beruvchi tomonidan oluvchiga shartnoma imzolanganidan keyin oluvchi tomonidan belgilab berilgan jadval asosida har kuni kelishilgan vaqtichida xar bir muassasaga alohida yetkazib berish shart.

**3.TARAFLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

3.1 Sotib oluvchi 1 kun oldin mahsulot yetkazib beruvchiga buyurtma beradi.Buyurtmada quyidagilar ko'rsatiladi: 1.Mahsulot miqdori

2.Mahsulotning sifati

3.Mahsulot assortimenti

3.2 Mahsulot yetkazib beruvchi 24 soat ichida sotib oluvchiga mahsulot yuborilayotganligi xaqida xabar berishi lozim. Xabarda quyidagilar: Transport turi va davlat raqami, Mahsulotning nomlari, miqdori va sifati, omborxonaga trasportning taxminiy yetib kelish vaqtini ko'rsatadi.Xabar faks, kom'pyuter tizimi orqali ham yuborilishi mumkin. 3.3 Sotib oluvchining o'zi mahsulotning yetkazib berish vaqtini xamda mahsulot assortimenti va miqdorini belgilaydi.

3.4 Mahsulot yetkazib beruvchi mahsulot yetkazib berishni o'z vaqtida amalga oshirmaganida, yetkazilmagan mahsulotlarni Ushbu holat aniqlangan kundan boshlab 1 kun ichida sotib oluvchiga yetkazib beradi yoxud sotib oluvchining roziligi bilan keyingi yetkazib berishda Ushbu shartnoma amal qilish doirasida yetkazib beradi.

3.5 Sotib oluvchi Mahsulot yetkazib beruvchini ogoxlantirgan holda kechiktirib yetkazilgan mahsulotlarni qabul qilishdan bosh tortishi mumkin.

#### **4.SHARTNOMA QIYMATI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI**

4.1 Mahsulotlarning umumiy qiymati 24 876 100 (Yigirma to'rt million sakkiz yuz yetmish olti ming bir yuz) sumni tashkil qiladi

4.2 Mahsulotlar assortimenti, miqdori, narxi tomonlar tomonidan tuziladigan spetsifikatsiyada ko'rsatiladi.

4.3 To'lov vaqtি byudjetdan mablag` oluvchi tashkilot tomonidan to`ldirilgan to`lovlar jadvalida ko'rsatiladi.

4.4 Mahsulot narxining o`zgarishi faqat taraflar kelishuviga asosan bo`ladi.

4.5 Shartnomaning 4.1-qismida ko'rsatilgan qiymat o`zida soliqlar, transport xarajatlari hamda mahsulot yetkazib beruvchini ushbu shartnoma shartlarini bajarishi bilan bog`lik bo`lgan boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

4.6 Sotib oluvchi mahsulot yetkazib berilganidan so`ng shartnomaning 4.3-bandi va taqdim qilingan to`lov jadvali buyicha mahsulot yetkazib beruvchining xisob raqamiga pul ko`chirish yo`li orqali pul ko`chiradi.

4.7. Sotib olinadigan tovar (mahsulot) uchun 7 462 830 (Yetti million to'rt yuz oltmisik ikki ming sakkiz yuz o'ttiz) so'm yoki 30 % oldindan to`lojni amalga oshiradi. Qolgan 70 % yoki 17 413 270 (O'n yetti million to'rt yuz o'n uch ming ikki yuz yetmish) so'm tovar (mahsulot) to`liq olingandan keyin hisobvaraq-fakturaga asosan amalga oshiriladi.

#### **5.MAHSULOT SIFATI**

5.1 Mahsulot yetkazib beruvchi sotib oluvchiga yetkazilgan mahsulotlarning sifatiga kafolat beradi.

5.3 Sifatsiz mahsulot aniqlangan kundan boshlab 1 kun ichida mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan sifatsiz mahsulot sifatliligi bilan almashtirib berilishi lozim.

#### **6. MAHSULOTNI BERISH VA QABUL QILIB OLİSH TARTIBI.**

6.1 Mahsulotlarni qabul qilib olishda sotib oluvchi jo`natish xujjatlariga mos mahsulotlar borligini sifati va miqdorini tekshirib qabul qilib oladi. 6.2 Mahsulotlarni qabul qilib olish dalolatnomasi tuzilganidan so`ng tekshirish to`lik olib borilganligini ko'rsatadi.

#### **7.TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

7.1 Agar sifatiz mahsulot yetkazib berilgan bo`lsa sotib oluvchi mahsulot yetkazib beruvchidan: Mahsulot narxini tushirishni, Mahsulot yetishmovchiliklarini 10 kun ichida sotib oluvchining xarajatisiz qoplashini, agar harajat qilingan bo`lsa uni qoplashini talab qilishi mumkin.

7.2 Agar mahsulot yetkazib beruvchi ushbu shartnomaga asosan yetkazib berishi lozim bo`lgan mahsulotni yetkazib bera olmasa yoxud sifatsiz mahsulotlarni kelishilgan muddatda almashtirib bermasa sotib oluvchi yetkazib berilmagan mahsulotlarni boshqa shaxslardan sotib olish xuquqiga ega bo`ladi. Bunda mahsulot yetkazib beruvchi sotib oluvchining mahsulotlarni bosha shaxslardan sotib olishi uchun qilgan qo'shimcha xarajatlarini to`laydi.

7.3 Sotib oluvchi sifatsiz mahsulotlarga to`lanishi kerak bo`lgan summalarini to`lashdan bosh tortishi, agar bunday mahsulotlarga pul to`langan bo`lsa uni qaytarib berishni talab qilish xuquqiga ega bo`ladi.

7.4 Agar mahsulot yetkazib beruvchi mahsulotni o`z vaqtida yetkazib bera olmasa mahsulot narxining 0.5% miqdorida xar kuni penya to`laydi.

7.5 Boshqa xollarda taraflarning javobgarligi amaldagi qonunchilik bilin hal qilinadi.

#### **8. KELISHMOVCHILIKLARNI HAL QILISH TARTIBI**

8.1 Ushbu shartnoma bo'yicha yuzaga keladigan baxs va munozaralar tomonlar o'rtaida kelishuv yo`li bilan, yoki tomonlar o'zaro kelisha olmagan xollarda esa O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofik sud tartibida hal etiladi.

#### **9.FORS-MAJOR XOLATLARI**

9.1. Tomonlarning xohish-istagiga bog'liq bo'limgan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'limgan holatlar oqibatida tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarmasliklari ushbu shartnoma shartlarini buzish deb hisoblanmaydi.

9.2. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf shartnomalarini bajarishga to'sqinlik qilayotgan holatlar va ularning ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

9.3. Fors-major holatlarini vaj qilib keltirayotgan taraf ularning tasdig'i sifatida vakolatli davlat organining tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

9.4. Tomonlarning xohish-istagiga bog'liq bo'limgan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'limgan holatlar sifatida quyidagilar nazarda tutiladi:

9.4.1. Yengib bo'lmas kuch sifatida tabiiy ofatlar;

9.4.2. Yangi qabul qilingan qonun hujjatlari;

## 10.BOSHQA SHARTLAR

10.1 Ushbu shartnomaga O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 122-moddasi 3-bandiga muvofiq tegishli tartibda G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin qonuniy kuchga kiradi va «31» dekabr 2022-yilgacha amalda bo'ladi.

10.2 Barcha qo'shimcha va o'zgartirishlar, ushbu shartnomaga buyicha, yozma ravishda tuzilib tomonlar tomonidan imzolanishi lozim.

10.3 Ushbu shartnomaning tugatilishi yoki buzilishi amaldagi konunchilik tomonidan hal qilinadi.

10.4 Ushbu shartnomaga bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxdan iborat bo'lib, ular tomonlarda bo'ladi.

10.5 Ushbu shartnomaga bo'yicha talab qilish xuquqi uchinchiligi shaxslarga faqat ikkinchi tomonning yozma roziligi asosida buladi.

## 11.TARAFLARNING

## MANZILLARI

## VA

## BANK

## REKVIZITLARI.

Mahsulot yetkazib beruvchi:

Sotib oluvchi:

### «SALMAN PRODUKT TA'MINOT»MCHJ

(ijrochining nomi)

Manzili: Muborak tuman

tel\faks +99 891 964 19 04

X\r20208000505444440001

OKONX

Bank: ATB Agro bank

MFO 00 187 151 INN 308920788

MFO

Muborak tuman Maktabgacha ta'llim bo'llim  
(byudjet mablaglarini oluvchi nomi)

Manzili Muborak tuman Tong maxallasi  
tel\faks tel\faks 672-24-00

SH x/r 400522860102347091100251020  
MFO 00014 INN 305153763

OKONX

O'zb.Res.Moliya Vazirligi G'aznachiligi

X/r: 23402000300100001010

Bank: Toshkent sh. Markaziy banki XKKM

MFO 00014 INN 201122919



Raxbar A.Raxmonov  
(F.I.SH.)

M.O'.



Raxbar SH.Ataeva  
(F.I.SH.)

M.O'

Shartnomasi loyixasini konun doirasida tuzilgan deb xisoblayman va tomonlarga uni imzolashni tavsiya etaman.

( Guvoxnama (litsenziya) № \_\_\_\_\_ " " yil )  
YURIST: \_\_\_\_\_

Yurist viza kuygan sana «\_\_\_\_» \_\_\_\_ yil

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

№ QX1181287660

## 1. Loyihaning nomi

Muborak tuman Maktabgacha ta’lim bo’limining Xo’jalik munosabatlariga oid, Oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tug’risidagi shartnoma loyihasi yuzasidan quydagilarni,

## ANIQLADIM:

## 2. Loyihaning nomi

Ushbu shartnomaga asosan bir tomondan «SALMAN PRODUKT TA'MINOT»MCHJ raxbari A.Raxmonov timsolida (keyingi urinlarda «Maxsulot yetkazib beruvchi») xamda ikkinchi tomondan Muborak tuman Maktabgacha ta’lim bo’limi raxbari SH.Ataeva timsolida (keyingi urinlarda «Sotib oluvchi») urtasida tuzilgan ushbu shartnomani kuyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:  
Shartnomani tuzilgan kunidagi umumiy narxi **24876100(yigirma uch million sakkiz yuz yetmish olti ming yuz)** so‘mni tashkil etadi.

Maxsulot yetkazib beruvchi o’zi yetishtirgan yoxud sotib oladigan maxsulotini Sotib oluvchiga ushbu shartnomada ko’rsatilgan muddatda o’z vaqtida yetkazib berishni, Sotib oluvchi esa mahsulotni qabul qilishni va haqini o’z vaqtida to’lash majburiyatini olish to‘g‘risidagi shartnoma loyihasi,

## 3. Loyihha ishlabi chiqarilishi va kiritilgan sana hisoblayman

Muborak tuman Maktabgacha ta’lim bo’limi tomonidan 26.01.2022-yilda yuridik xizmat ko’rsatish markaziga taqdim etilgan. Yuqorida qayd etilganlarga asosan,

## XULOSA QILDIM:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblayman.

Markaz bosh  
yuriskonsulti



X.A.Boirqulov

2022-yil “26” yanvar